



HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANING SHAKLLANISHIGA XOS INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Yamanqulov Sohib

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети курсанти

Аннотация. Мақолада ҳарбий хизматчиларда касбий идентификация шаклланишининг индивидуал-психологик хусусиятларининг моҳияти очиб берилган. Шунинг билан бирга ҳарбий хизматчиларда касбий идентификация борасидаги олимларнинг назарий қараишлар, ёндашувларнинг мазмуни келтириб ўтилган. Айниқса, ҳарбий хизматчиларда касбий идентификацияни шаклланганлигини эмпирик жиҳатдан ўрганилиши масалалари ёритилган.

Калим сўзлар: ҳарбий хизматчи, касб, касбий тайёргарлик, касбий тайёргарлик, касбий идентификация, ноаниқ касбий идентификация, мажбурий касбий идентификация, касбий идентификация танловининг инқирози, шаклланган касбий идентификация, “Мен” образи, когнитив омил, ўзини ўзи англаш, рефлексив жараёнлар.

INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY IN MILITARY SERVANTS

Yamankulov Sahib

Cadet of the Public Security University of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article reveals the nature of the individual-psychological characteristics of the formation of professional identity in military personnel. At the same time, the contents of the theoretical views and approaches of the scientists regarding the professional identification of military personnel are mentioned. In particular, the issues of empirically studying the formation of professional identity among military personnel are highlighted.



Key words: *military serviceman, profession, professional training, professional training, professional identification, ambiguous professional identity, forced professional identity, crisis of professional identity choice, formed professional identity, "I" image, cognitive factor, self-awareness, reflexive processes.*

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Яманкулова Сахиб

*курсант Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан*

Аннотация. *В статье раскрывается природа индивидуально-психологических особенностей формирования профессиональной идентичности военнослужащих. При этом упоминается содержание теоретических взглядов и подходов ученых относительно профессиональной идентификации военнослужащих. В частности, освещены вопросы эмпирического изучения формирования профессиональной идентичности у военнослужащих.*

Ключевые слова: *военнослужащий, профессия, профессиональная подготовка, профессиональная подготовка, профессиональная идентификация, неоднозначная профессиональная идентичность, вынужденная профессиональная идентичность, кризис выбора профессиональной идентичности, сформированная профессиональная идентичность, образ «Я», когнитивный фактор, самосознание, рефлексивные процессы.*

Har qanday kasb egalari uchun muhim jihat o'z kasbiy faoliyatida yuksak muvaffaqiyatlarga erishishdan iborat. Shu o'rinda kasbga qo'yiladigan talablar



muhim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida tanlayotgan kasbga nisbatan shaxsning qiziqish, qobiliyatlar, imkoniyatlar darajasining mosligi muhim hisoblanadi.

Identifikatsiya – bu shaxsning muhim xislatlari kasbiy yaroqlilik sifatida individning personalizatsiyalanishi va o‘zini topish yo‘li hisoblanadi.

Kasbiy identifikatsiya mutaxassis shaxsining shakllanishdagi muhim mezonlaridan biri hisoblanib, kasbiy taraqqiyoti, kasbiy o‘zini o‘zi anglash va aniqlash kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liqdir. Kasbiy identifikatsiya – bu kasbiy guruh va faoliyatni obektiv birligi sifatida hamda bunday tuzilmani buzilishi, ya’ni qaytar jarayon begonalikni keltirib chiqaradi. Kasbiy identifikatsiya bu kasbiy guruhni obektiv va subektiv birligi bo‘lib, shaxsning kasbiy tavsifini, me’yor, rol, status kabilarni o‘zida jamlanishidir [3].

Ma’lumki, kasbiy identifikatsiyaning umumiy identifikatsiyalar tuzilishida tutgan o‘rni hali to‘liq yoritib berilmagan, lekin fenomen va ijtimoiy identifikatsiya tuzilishi hamda uning alohida turlari haqidagi ilmiy tasavvurlarning rivojlanganligi kasbiy identifikatsiyani ijtimoiy “Men” tuzilishidagi muhim elementlardan biri sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Ijtimoiy identifikatsiya hayotdagi o‘zaro hamkorliklar, ijtimoiy taqqoslashlar va subekt ijtimoiy qurilishining tayanch tizimi sifatida namoyon bo‘luvchi faol ijtimoiy ta’limni yo‘lga qo‘yish natijasida bunyod bo‘luvchi dinamik jarayon sifatida yuzaga keladi. Biz ijtimoiy identifikatsiya yagona kognitiv, motivatsion va qadriyatlar tizimini o‘z ichiga qamrab olishni kuzatishimiz mumkin. Bu yondashuvga muvofiq kasbiy identifikatsiya faoliyat va u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro hamkorlikning individual emotsional bilimlar bilan boyitilishi, faoliyatga yo‘nalganlik ta’siri ostida yuzaga keluvchi shaxsning o‘zini o‘zi anglashi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu bilimlarga muvofiq tarzda individ qadriyatlar tizimini, qolaversa, mehnat jamoasiga xos bo‘lgan hulq-atvor shakllarini va mehnat jamoasining status-rolli, axloqiy, motivatsion ta’sirlariga muvofiq maqsadlarni ham o‘zlashtiradi. Kasbiy identifikatsiya ijtimoiy identifikatsiya tuzilishining muhim



elementlaridan biri bo'lib, shaxsiy va kasbiy taraqqiyoti jarayonida shakllanadi va inson hayotining ko'p jihatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi [2].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda kasbiy identifikatsiya o'zida kasblar dunyosiga yo'nalganlik va o'zaro ta'sirini ta'minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxsning imkoniyatlarini to'liq amalga oshiruvchi, qolaversa, tanlagan kasbning natijasini hamda taraqqiyot yo'nalishini oldindan ko'ra oluvchi shaxsning kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarini mujassamlashtirgan integrativ tushuncha deb e'tirof etsak bo'ladi. Muayyan bir axloqiy va motivatsion tizimdagi, qolaversa, shaxsning kasbiga nisbatan subektiv munosabatlar bilan hamohang tarzda kechuvchi shaxsning mehnat jamoasida tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari kasbiy identifikatsiyaning asosini tashkil qiladi. Bu g'oyalar kasbiy identifikatsiya kognitiv-motivatsion va axloqiy tarkibiy qismlar bilan yaxlitlikni tashkil qilishi ko'rsatib berilgan empirik tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Identifikatsiyaning kognitiv, motivatsion va axloqiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish orqali ular ichida kognitiv tarkibiy qismlarini tadqiq qilish mushkul ekanligini ta'kidlab o'tamiz, chunki aynan kognitiv komponent identifikatsiya tuzilishining yadrosi hisoblanadi.

Kasbiy identifikatsiyaning kognitiv komponentiga nisbatan an'anaviy yondashuv D.N.Zavalishinaning ta'kidlashicha, insonning kasbdoshlar guruhidagi me'yorlar, qadriyatlar va an'analarni o'zlashtirish bilan belgilanadi. Ushbu voqelik kasbiy identifikatsiya sifatida namoyon bo'ladi [1].

“... Hech qanday kasbiy faoliyat va shaxsiy taraqqiyot kasblar dunyosini va o'zini o'zi anglashga yo'naltirilgan subektning kognitiv faolligisiz amalga oshmaydi”.

Ushbu jarayonni kasbdoshlar guruhidagidagi shaxslarning o'zini o'zi anglashi bilan taqqoslasa bo'ladi. D.N.Zavalishinaning uqtirishicha, kasbiy identifikatsiyaning kognitiv tarkibiy qismlarini kasbiy faoliyat yuritilayotgan



jamoaning muhitga mos ravishda subektning shaxsiy xususiyatlari bilan to'ldirish lozim [4].

Identifikatsiya jarayonida shaxsning o'zini mutaxassis sifatida anglashi mehnat jamoasi, ish joyining o'zida sodir bo'ladi. Bu jarayon o'zida faqatgina ijtimoiy muhit jamoani, xodim va boshqaruvchi mutaxassislarni yoki faqatgina kasbiy me'yorlarning tashuvchilarni emas, balki mehnat obektini, qolaversa, o'z faolligini yo'naltiruvchi voqelikda mujassamlashadi. Ye.V.Konaeva "Kasbiy makon" tushunchasini mutaxassis, insonlar jamoasi faoliyat olib boruvchi, atrofdagi voqealarga o'z ta'sirini o'tkazuvchi obektlar tizimi sifatida o'rganadi. Muallifning ko'rsatishicha, kasbiy makon tushunchasiga nisbatan bunday yondashuv uning kasbiy identifikatsiya bilan aloqalarini osongina o'rnatish imkonini beradi: insonning o'zini mutaxassis sifatida his qilishi – aynan mana shu jihat uni ayrim odamlar, obektlar, voqealar va mas'uliyat doirasi ichidagi shaxsning o'zi haqidagi tasavvuridir [3].

Demak, kasbiy identifikatsiya zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatiga ega bo'lgan predmeti hisoblanadi. Bu integrativ tushunchada shaxsning kasblar olamiga mehnat jamoasi va keng ijtimoiy muhitga yo'nalishini ta'minlovchi kasbiy faoliyatda shaxs imkoniyatini to'liq namoyon qilish imkonini beruvchi, qolaversa, tanlagan kasbning kutilayotgan natijalarini va shaxsiy taraqqiyot imkoniyatlarini oldindan ko'ra, biluvchi kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarining o'zaro aloqasi aks etadi. Kasbiy yo'nalganlik va o'zini o'zi anglash kasbiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy identifikatsiya muammosi qator psixolog olimlar tomonidan keng doirada tadqiq qilib kelingan. Xususan, A.M.Sosnovskaya tomonidan jurnalist shaxsi va kasbiy identifikatsiya muammosi tadqiq qilinib, unda "Men" konsepsiyasini kasbiy o'zini o'zi anglashni sharti sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, jurnalist shaxsida kasbiy identifikatsiyaning ijobiy va salbiy tomonlarini real "Men" va ideal "Men" obrazlarini ta'sir xususiyati bilan bog'liq



masalalari ochib berilgan. Shu o'rinda jurnalistning kasbiy identikligi muammosi borasida o'tkazilgan tadqiqotlarning tahlillari keltirilgan [4].

G.V.Garbuzova tomonidan talabalarni o'zini o'zi boshqarishi bo'lajak mutaxassislikda kasbiy identikligini shakllantirish sharti sifatida mavzusidagi tadqiqot ishida talaba shaxsini o'zini o'zi boshqarish tizimining tarkibiy tuzilmalari o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi faollashtirish, o'zini o'zi tashkillashtirish, o'zini o'zi rivojlantirish va nazorat qilish bilan bog'liq masalalari, shuningdek, o'zini o'zi boshqarishni o'quv-kasbiy jarayonga hamda kasbiy identifikatsiyaga ta'sir masalalari tahlil qilingan. N.L.Regushning o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatning turli bosqichlarida kasbiy identiklik muammosi keng doirada tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy identiklik o'zini o'zi anglash tizimiga hamda pedagogik faoliyatdagi stajiga ko'p darajada bog'liqligi ochib berilgan. A.A.Sorokinning ilmiy izlanishlarida kompyuter mutaxassisini kasbiy identifikatsiyasini optimallashtirish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda kasbiy identifikatsiyasining kasbiy kompetentlik, shaxsning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari bilan aloqadorligi masalasi ochib berilgan. Shuningdek, A.Shaxotin tadqiqotlarida oliy ta'limga tayyorgarlik jarayonida iqtisod yo'nalishidagi talabalarning kasbiy identifikatsiyasi xususiyatiga bag'ishlangan tadqiqot ishida kasbiy identifikatsiya shaxsning bo'lajak kasbiy rejalari va istiqbollari, kasbiy faoliyatdagi tajribasiga, kasbiy yo'li shuningdek, hayot mazmuni va qadriyatlar tizimi, kasbiy o'zini o'zi anglashi, kasbiy tayyorgarlikdagi kognitiv-emotsional, refleksiv jarayonlar bilan bog'liqligi asoslanilgan [4].

Yuqoridagi tadqiqotlarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanishini o'ziga xos xususiyatlari, tarkibiy tuzilmalari asoslab berilgan. Lekin aynan harbiy xizmatchilarda kasbiy identifikatsiyani shakllanishining psixologik mezonlari, jabhalari atroflicha tadqiq qilinmagan.

Darhaqiqat harbiy xizmatchilarda kasbiy shakllanishi ulardagi kasbiy identifikatsiya xususiyatlari bilan aloqadorlik masalasini asoslash maqsadga



muvofiqdir. Mazkur tadqiqotda harbiy xizmatchilarda kasbiy identifikatsiya psixologik hodisa sifatida o'z ichiga qamrab olgan mezonlar bilan aloqasini hamda mazkur jabha bilan bog'liqlik munosabati xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Empirik tekshiruv natijalari miqdoriy jihatdan tahlil qilinib, asosiy ko'rsatkichlari jadvallarda aks ettirildi.

1 jadval

Kasbiy identifikatsiyaning tarkibiy mezonlari bo'yicha sinaluvchilar ko'rsatkichlarining taqsimoti

Kasbiy identifikatsiya mezonlari	Ofitserlar		Serjantlar	
	M	S ²	M	S ²
Noaniq kasbiy identifikatsiya	14	5.1	11.04	4.7
Majburiy kasbiy identifikatsiya	2.9	2.7	4.3	3.8
Kasbiy identifikatsiya tanlovining inqirozi	6.4	3.2	5.7	2.4
Shakllangan kasbiy identifikatsiya	2.57	2.1	3.9	2.7

Mazkur metodika harbiy xizmatchilarda kasbiy identifikatsiya darajasini aniqlashga qaratilgan. Shaxs o'zining kasbiy yo'lini belgilash jarayonida kasbiy identifikatsiya darajasining 4 ta bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, noaniq kasbiy identifikatsiya, majburiy kasbiy identifikatsiya, kasbiy identifikatsiya tanlovining inqirozi, shakllangan kasbiy identifikatsiya. Ushbu metodika sinaluvchilarda bu darajalardan qaysi biri shakllanganligini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga sinaluvchilarda kasbiy tanlov bilan bog'liq bo'lgan muammolarga nisbatan o'zining munosabatlari tizimida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Keltirilgan natijalar (1-jadval) ga ko'ra, ofitserlar va serjantlar o'rtasida noaniq kasbiy identifikatsiya mezoni bo'yicha (M=14,0) va (M=11,04) farqli



ko'rsatkichlar ko'zga tashlanadi. Tajriba natijalarini tahlildan ko'rishimiz mumkinki, xarbiy xizmatchilarda mazkur mezon bo'yicha natijalarning ahamiyatligi ularning ma'lum bir sohani tanlaganliklari hamda mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatayotganligidan dalolat beradi. Shuning bilan birga serjantlarda natijalarning ahamiyatsiz darajada ekanligi ular haligacha biror bir sohani tanlamaganliklari, faoliyatning u yoki bu turi bilan to'laqonli shug'ullanmayotganligi, kasblar olami haqidagi tasavvurlari nechog'li real voqelik bilan mos kelish yoki kelmasligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, noaniq kasbiy identifikatsiya shaxsning hayot yo'lini to'la tanlamaganligi, mansab, kasbiy rivojlanish haqida aniq tasavvurlar mavjud emasligi, hatto inson o'zining oldiga bu kabi masalalarni hal qilish vazifasini o'ylab ham ko'rmasligi bilan belgilanadi. Bu holat shaxsning kasbiy maqsad va rejalariga ega bo'lmagan va shu bilan birga kasbiy rivojlanish yo'llarini o'ylab topib, ularni amalda qo'llashga intilmaydiganlar uchun xarakterlidir. Aksariyat hollarda bu darajaga o'zining kasbiy kelajagiga faol qiziqish bildirmayotgan yoki hohlamayotgan harbiy xizmatchilar uchun uchun xosdir. Bunday daraja tanlagan kasbini kelajagi uchun muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga ularda atrofdagi insonlarga nisbatan havas, ishtiyoq va qiziqishning kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Harbiy xizmatchilarda kasbiy identifikatsiya mezoni bo'lmish majburiy kasbiy identifikatsiya har ikkala guruh sinaluvchilar guruhida farqli, tafovutlar qayd qilinadi. Jumladan, ofitserlarda ($M=2,9$) va serjantlarda ($M=4,3$) ni tashkil qiladi. Bu kursatkich serjantlar guruhida yuqori ekanligi ma'lum bo'ladi. Haqiqatdan ham harbiy xizmatchilar (faoliyat sohasining tarkibiy) serjantlardan farqli ravishda kasbiy faoliyat haqida bilim, tasavvurlar zahirasisiga ega ekanligi ular uchun mutaxassislikni o'zi emas, ko'proq jarayonning o'zi qiziqarli ekanligi ma'lum. Shuningdek, harbiy xizmatchilar tanlagan sohasini o'zlaridagi qiziqish, imkoniyat, qobiliyatlari doirasida kelib chiqqan holda tanlovni amalga oshirganligi,



ma'lum ma'noda majburlov tizimi ostida tanlaganliklari ham mavjud. Serjantlar guruhida natijalarning yuqori ekanligi ularning harbiy kasbini tanlashi ko'p jihatdan ijtimoiy hayot tomonidan qo'yilayotgan zaruriyat bo'lsa, boshqa soha mutaxassislariga qaraganda iqtisodiy sarmoyani qo'lga kiritish o'z hayot yo'li haqida tasavvur mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bu jarayonda shaxsning kasbiy qiziqish, qobiliyatlar darajasi bilan emas, balki atrofdagi insonlarning ta'siri natijasida tanlaganliklari ma'lum bo'ladi. Bu esa kasb tanlashda majburlovning ustunligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, majburiy kasbiy identifikatsiya harbiy xizmatchi shaxsi o'zining kasbiy kelajagi haqida shakllangan tasavvurga ega. Biroq ular tashqaridan majburlangan va mustaqil tanlov natijasi hisoblanmaydi. Bu holat mustaqil fikr yuritish asosida emas, balki avtoritetga ega bo'lgan shaxslar ota-ona yoki do'stlari fikriga qo'shilgan holda o'zining kasbiy yo'lini tanlagan insonlar uchun xarakterlidir. Qanchadir vaqt mobaynida bu holat shaxsiy kelajak xususidagi kechinmalardan qochishga yordam berib, qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Biroq bunday yo'l orqali tanlangan kasbga nisbatan shaxsning haqiqatdan qiziqish va qobiliyatlari asosida ekanligiga kafolat mavjud emasligi qayd etiladi. Shu bois, bunday tanlov kelajakda ko'ngilsizliklarga olib kelishi mumkin.

Sinaluvchilar guruhida kasbiy identifikatsiyaning navbatdagi mezoni kasbiy identifikatsiya tanlovining inqirozi bo'yicha natijalarda deyarli farqli jihatlar mavjud emasligi empirik ma'lumotlardan aniqlandi. Natijalarga ko'ra, kasbiy identifikatsiya tanlovini inqirozi ofitserlarda ($M=6,4$) va serjantlarda ($M=5,7$) ni tashkil qiladi.

Ma'lumotlar tahlilidan ko'rish mumkinki, mazkur guruhga kirgan sinaluvchilarda o'z kasbiy rolini anglab yetishi va tasavvurlarini shakllanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bunday vaziyat harbiy xizmatchi va xodimlar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Bunday holat albatta, ofitserlar va serjantlar guruhida tom ma'noda



yaqinligi bilan izohlanadi. Natijalariga ko'ra, kelajakdagi kasbiy rivojlanishni alternativ variantini qidirib topish va mazkur holatdan o'zining kelajagi haqida anglangan qaror qabul qilib, chiqib ketishga faol harakat qilayotgan insonlar uchun xarakterlidir. O'z navbatida shaxs kasbiy rivojlanishining mumkin bo'lgan variantlari xususida fikr yuritib, o'zida turli kasbiy rollarni tasavvur qilib, mutaxassisliklar va ularni egallash yo'llari haqida ko'proq bilishga harakat qiladi.

Empirik ma'lumotlar natijalariga ko'ra, kasbiy identifikatsiya darajalaridan shakllangan kasbiy muvofiqlik muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ofitserlarda ($M=2,57$) va serjantlarda ($M=3,9$) ni tashkil qiladi. Unga ko'ra, serjantlar guruhida ko'rsatkichlar yuqori ekanligi aniqlandi. Bu natijani serjantlar guruhida yuqori ekanligi ularda kasbiy e'tiqod, dunyoqarashning shakllanmaganligi, shuningdek mazkur mutaxassislikda faoliyat yuritishlari noma'lumligi bilan izohlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ularning hayot va kasbiy yo'nalishlari, kasbiy qarorlarni ongli ravishda qabul qila olmasliklari bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilarda bu ko'rsatkichlarning pastligi ular mazkur mutaxassislikda faoliyat yuritmayotganliklari birlamchi sabab bo'lsa, tanlagan kasbi bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatining mavjudligi, kasbiy qadriyat, e'tiqod, hayotiy maslakni shakllanganligi bilan izohlanadi.

Ayniqsa, bu harbiy xizmatchilarda kasbiy identifikatsiya shu bilan birga shakllangan kasbiy identifikatsiya anglangan mustaqil qaror natijasi bo'lgan kasbiy rejalarni aniqlanganligi bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchining kelajakdagi kasbiy rivojlanishini anglangan tanlovini qabul qilishga tayyorligi yoki uni qabul qilishi bilan tavsiflanadilar. Ularda o'zlarining kasbiy kelajaklari haqida qabul qilingan qarorlari to'g'riligiga nisbatan ishonch mavjud bo'ladi. Bu darajaga faqatgina "tanlov inqirozi"ni yengib o'tib, o'zining kasbiy qadriyatlari va hayotiy e'tiqodi, maslagi haqida bilimlar tizimini mustaqil shakllantirgan insonlargina ega bo'ladi. Harbiy xizmatchilar o'zlarining hayot yo'lini anglangan holda tashkil etishga



qodirlar, chunki ular hayotda nimaga erishishni hohlashlarini oldindan belgilab oladilar.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Вороцкая И.Ю. Профессиональная идентичность бортпроводников: структура и особенности. Дисс. ... канд. психол. наук. М., 2005. 126 с.

2.Шнейдер Л.Б. Личностная, тендерная и профессиональная идентичность: теория и методы диагностики: учеб.-метод. пособие. 2007. 128 с.

3.Шнейдер Л.Б. Профессиональная идентичность: теория, эксперимент, тренинг: учеб. пособие. М.: Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та, 2004.

4.Яшина А.А. Профессиональная идентичность молодого преподавателя вуза: Дисс. ... канд. психол. наук. Волгоград, 2007. 213 с.